BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

YUSUPOV ZIYOVIDDIN OLIMJON O‘G‘LI

ALLIUM L. (AMARYLLIDACEAE) TURKUMINING FILOGENIYASI, BIOGEOGRAFIYASI VA EVOLYUTSIYASI (MARKAZIY OSIYO MISOLIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 582.570.2:581(043.3)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Yusupov Ziyoviddin Olimjon o‘gli
Allium L. (Amaryllidaceae) turkumining filogeniyasi, biogeografiyasi va evolyutsiyasi (Markaziy Osiyo misolida) 3

Yusupov Ziyoviddin Olimjon ugli
Molecular phylogeny, biogeography and evolution of *Allium* L. (Amaryllidaceae) with a focus on Central Asia 27

Юсупов Зиёвиддин Олимжон угли
Молекулярная филогения, биогеография и эволюция *Allium* L. (Amaryllidaceae) с акцентом на Центральную Азию 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yhati
Список опубликованных работ
List of published *w*orks 55

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

YUSUPOV ZIYOVIDDIN OLIMJON O‘G‘LI

ALLIUM L. (AMARYLLIDACEAE) TURKUMINING FILOGENIYASI, BIOGEOGRAFIYASI VA EVOLYUTSIYASI (MARKAZIY OSIYO MISOLIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/B267 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Tojiboyev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Karimov Farxod Isomiddinovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Kushanov Faxriddin Ne'matullayevich biologiya fanlari doktori, professor
	Rong Li PhD, professor
Yetakchi tashkilot:	**O'simliklar biologiyasi va biotexnologiyasi instituti** (Olmaota, Qozog'iston Respublikasi)

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "10" mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (86-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «24» fevral kuni tarqatildi.

(2026 yil «19» fevraldagi 25 - raqamli reyestr bayonnomasi

B. A.Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash rais o'rinbosari, b.f.d., katta ilmiy xodim

A.V.Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F.Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy Seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi kunda biologiya fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri o‘simliklarning filogenetik aloqalari, evolyutsion tarixi va biogeografik shakllanish qonuniyatlarini zamonaviy molekulyar-genetik hamda filogenomik yondashuvlar asosida o‘rganishdan iboratdir. Genom texnologiyalarining jadal rivojlanishi, yuqori aniqlikdagi DNK sekvensiyalash usullarining keng qo‘llanilishi va bioinformatik tahlil imkoniyatlarining ortib borishi o‘simliklar evolyutsiyasining murakkab jarayonlarini yanada chuqurroq va ishonchliroq talqin etish imkonini bermoqda. Bu esa an’anaviy morfologik va anatomik belgilarga asoslangan tasniflarni qayta ko‘rib chiqish, turkum va tur darajasidagi filogenetik munosabatlarni aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Markaziy Osiyo hududi o‘simliklar xilma-xilligi va taksonomik murakkabligi bilan ajralib turadigan muhim biogeografik mintaqalardan biri bo‘lib, hudud geologik rivojlanish tarixining murakkabligi, tog‘ va cho‘l ekotizimlarining uyg‘unlashuvi hamda tarixiy paleoiqlimiy jarayonlar, jumladan oxirgi muzli davri turkumlari va turkumosti taksonlarning evolyutsion shakllanishi, diversifikatsiyasi va areallarining qayta tuzilishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu mintaqa florasini to‘liq turkum va turkumosti darajasida filogenetik, morfologik hamda molekulyar-genetik yondashuvlar asosida to’liq o‘rganish yuqori taksonlar darajasidagi evolyutsion munosabatlarni aniqlashtirish, morfologik belgilar va adaptiv xususiyatlarning evolyutsion shakllanishini talqin etish hamda ekologik omillar bilan bog‘liq moslashuv mexanizmlarini tushuntirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy botanika va evolyutsion biologiya fanlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni o‘rganish va saqlab qolishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublika hududi o‘simliklarini zamonaviy molekulyar-genetik yondashuvlar asosida inventarizatsiya qilish floraning tuzilishi va evolyutsion aloqalarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Molekulyar va filogenetik ma’lumotlar iqlim o‘zgarishi sharoitida hudud florasini monitoring qilish, tezkor va ishonchli tur identifikatsiyasini amalga oshirish hamda biologik resurslarni muhofaza qilishga qaratilgan harakatlar strategiyasini ilmiy jihatdan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentyabrdagi PQ-3256-son «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son «Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori[2], O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentyabrdagi PQ-3256-son «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son «Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

Respublikasi Konstitutsiyasining (yangi tahrirdagi) 49 va 115 moddalarida oid ayrim vazifalar hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. *Allium* L. turkumini o‘rganish bo‘yicha klassik va zamonaviy tadqiqotlar dunyo bo‘ylab yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan bo‘lib, bu turkumining taksonomiyasi, molekulyar filogeniya, biogeografiya va evolyutsiyasini tushunishga katta hissa qo‘shgan. Ushbu tadqiqotlarda ishtirok etgan taniqli universitetlar va ilmiy tashkilotlar quyidagilardan iborat: O‘simlik genetik resurslarining taksonomiyasi bo‘limi - Leibniz instituti (IPK), Germaniya; Osnabruk universitetining botanika bog‘i (Germaniya); Sichuan universiteti (Xitoy); Changvon milliy universiteti (Koreya Respublikasi); Xishuangbanna Tropical botanika bog’i (Xitoy); Moskva davlat universiteti (Rossiya); Kunming Botanika instituti (Xitoy).[3]

Allium turkumining molekulyar taksonomiyasi oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: turkum ITS geni asosida o‘rganilib, turkumostilar va seksiyalar darajasida tasniflangan (Germaniya, Osnabrück University), Keyinchalik 39 ta turining to‘liq xloroplast genomlari asosida filogenomik tahlillar o‘tkazilib, turkumning kelib chiqish yoshi 34–47 mln yil deb aniqlangan (Xitoy, Sichuan University). Biogeografik tadqiqotlar *Allium* turlarining Eski dunyodan Yangi dunyoga Sharqiy Osiyo va Yevropa orqali tarqalganligini ko‘rsatgan (Xitoy, Sichuan University; Germaniya, Leibniz Institute), Shuningdek, urug‘ epidermis hujayralarining mikromorfologiyasi O‘rta Osiyoga mansub 48 ta tur misolida o‘rganilib, uning taksonomik ahamiyati isbotlangan (Koreya, Changwon University).

Bugungi kunda *Allium* turkumining molekulyar taksonomiyasi, evolyutsiyasi va biogeografiyasi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda: filogenomik yondashuvlar asosida (to‘liq xloroplast genomlari va yadro genomlari) turkum ichidagi evolyutsion munosabatlarni aniqlash; molekulyar va morfologik belgilarni integratsiyalash orqali taksonomik nomuvofiqliklarni bartaraf etish; biogeografik modellashtirish yordamida *Allium* turlarining kelib chiqishi va tarixiy migratsiya yo‘llarini rekonstruksiya qilish; mikromorfologik belgilar (urug‘ shakli va epidermis hujayralari) ning taksonomik ahamiyatini aniqlash; gibridizatsiya va poliploidiya jarayonlarining *Allium* evolyutsiyasiga ta’sirini baholash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Allium* turkumining ilmiy o‘rganilishi XVIII asrga borib taqaladi. Uning taksonomik asoslari dastlab C. Linnaeus (1753)

[3] Dissertatsiyaning mavzusi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, http://www.works.doklad.ru, http://www.dissercat.com, http://www.researchgate.net, http://webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

tomonidan yaratilgan. Keyingi davrlarda J.G. Baker (1874, 1875, 1892); E. Regel (1879); P.E. Boissier (1882); E. Regel & A. Herder (1884); A. Engler (1892); A.A. Grossheim (1940); V.I. Grubov (1955); R.V. Kamelin (1973); P. Hanelt (1992); N. Friesen (2007); F.O‘. Hassanov (2008) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan *Allium* turkumiga mansub turlarning tasniifi va tipifikatsiyasi tizimli ravishda amalga oshirilgan. Ushbu ishlarda piyozcha va ildizpoya tuzilishi, barg morfologiyasi, gulkosa va gulqo‘rg‘on elementlari, changchi hamda urug‘ belgilari kabi asosiy diagnostik morfologik xususiyatlar majmuasi asosida turkumning ichki tasnifi shakllantirilib, turkumosti va seksiyalar darajasida turli klassifikatsiya modellari taklif etilgan.

Keyingi bosqichlarda *Allium* turkumiga mansub turlarning turli geografik mintaqalarda tarqalishi, ularning molekulyar filogeniyasi, biogeografik shakllanishi va evolyutsion rivojlanish yo‘nalishlari an’anaviy morfologik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy molekulyar-genetik va filogenomik usullar asosida keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda yadroviy va plastid genom markerlari asosida turlararo filogenetik munosabatlar, asosiy evolyutsion liniyalar hamda tarixiy migratsiya va diversifikatsiya jarayonlarini talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan (Hanelt, 1992; Fritsch & Friesen, 2002; Friesen et al., 2006, 2014; Gurushidze et al., 2008, 2010; Blattner et al., 2008; Li et al., 2010, 2016; Cheryomushkina, 2012; Nguyen et al., 2013; Xie et al., 2019; Yusupov et al., 2021; Han et al., 2022; Zhou et al., 2023).

Markaziy Osiyo misolida *Allium* turkumining filogeniyasi, biogeografiyasi va evolyutsiyasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarda ham mintaqa florasiga oid muhim ilmiy adabiyotlardan keng foydalanilgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida tarqalgan *Allium* turlarining taksonomik tuzilishi (Kamelin, 1973; Khassanov, 2008, 2018, 2022; Tojibaev et al., 2014; Fritsch, 2016); evolyutsion aloqalari (Qin et al., 2010; Friesen et al., 2006, 2014, 2024, 2025; Choi et al., 2012; Tan et al., 2017; Basamunkh et al., 2020; Dong et al., 2022) va tarixiy tarqalishini yorituvchi klassik va zamonaviy ishlar morfologik hamda molekulyar-filogenetik talqinlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan (Cheryomushkina, 2004; Friesen et al., 2007; Gurushidze et al., 2008, 2010).

Shu bilan birga, hozirgi kungacha Markaziy Osiyo florasidagi tarqalgan *Allium* turkumiga mansub turlar ishtirokida tuzilgan filogenetik rekonstruksiyalar va ularga integratsiya qilingan morfologik belgilar turlar sonining yetarli darajada qamrab olinmaganligi sababli mintaqa florasining evolyutsion va biogeografik rivojlanish jarayonlarini to‘liq ochib bera olmagan. Mazkur holat Markaziy Osiyoda tarqalgan *Allium* turlarini keng qamrab olgan kompleks filogenetik va evolyutsion tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv zamonaviy molekulyar usullar asosida *Allium* turkumining filogenetik tuzilishi, evolyutsion rivojlanish yo‘nalishlari hamda turli geologik davrlarda yuz bergan divergentsiya jarayonlarini chuqur va ishonchli tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratib, ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Fanlar akademiyasi Botanika instituti Molekulyar filogeniya va biogeografiya

laboratoriyasi tomonidan amalga oshirilgan “PFI-5 Hayot daraxti: O‘zbekiston bir urug‘pallalilari” (2020-2024) va Xalqaro O‘zbekiston-Belorussiya ilmiy-texnik dasturi "Belorussiya va O‘zbekistonning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan turlarining genetik inventarizatsiyasi DNK barkodlash texnologiyasidan foydalanib o‘tkazish" (Loyiha raqami: MRB-AN-2019-30) davlat fundamental davlat dasturlari hamda Toshkent va Kunming botanika bog‘larida “Global *Allium* Garden (Tashkent-Kunming centers)” tashkil etilishi bo‘yicha amaliy loyihalar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Allium* turkumiga mansub turlar o‘rtasidagi evolyutsion aloqalar, filogenetik tuzilma va diversifikatsiya jarayonlarini aniqlash hamda ularning mikromorfologik belgilari asosida taksonomik tizimda qo‘llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

urug‘ mikromorfologiyasini o‘rganish asosida *Allium* turkumi turlari uchun yangi aniqlagich kalitni ishlab chiqish va olingan morfologik belgilarni turkumning molekulyar filogenetik daraxtiga integratsiya qilish;

molekulyar tahlillar va urug‘ morfologiyasi bo‘yicha ma’lumotlarni integratsiya qilish asosida *Allium* turkumi turlarining biogeografik kelib chiqishi haqida yangi gipotezani ishlab chiqish;

molekulyar ma’lumotlar asosida *Cepa* seksiyasi turlarining evolyutsion va filogenetik yaqin qarindoshlarini aniqlash hamda Markaziy Osiyo piyoz turlarining madaniylashish jarayonidagi rolini baholash;

yadro va xloroplast asosida *Cepa* seksiyasi uchun tuzilgan filogenetik daraxtlar nomuvofiqliklarini tahlil qilish va sabablarini aniqlash hamda turlar orasidagi gibridlanish jarayonlarini ochib berish;

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan *Allium* ostturkumiga mansub turlararo plastom genom tahlillarini amalga oshirish va filogenetik munosabatlarni aniqlash;

plastom genomlaridagi yagona nukleotid polimorfizmlarini (SNP) tahlil qilish va aniqlangan o‘zgaruvchan hududlar bo‘yicha *Allium* ostturkumi va *Alluim* turkumi turlari uchun barkoding markerlar anilqash;

Allium turlari uchun sinapomorfik belgilarning evolyutsion o‘zgarishini aniqlash va tahlil qilish;

Allium turkumi ichidagi asosiy evolyutsion liniyalarning (EL1–EL3) yadro va plastid genomlari asosida shakllanish vaqtini aniqlash hamda ularning biogeografik kelib chiqishini rekonstruksiya qilish.

Tadqiqotning obyekti. *Allium* turkumiga mansub *Allium* turkumosti turlari va *Cepa* seksiyasi turlari.

Tadqiqotning predmeti. Filogenetik munosabatlar, evolyutsion rivojlanish yo‘nalishlari, biogeografik shakllanish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullar. Dissertatsiyada ishini bajarishda morfologik, skanirlovchi elektron mikroskopiya, filogenetik, filogeografik va statistik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Allium turlarini farqlashda urug‘ epidermis hujayralarining periklinal yuzasi va hujayralararo masofasi muhim yangi diagnostik belgi sifatida aniqlangan;

ITS geniga asoslangan filogenetik daraxt hamda urug‘ mikromorfologiyasiga tayangan tahlillar natijasida dastlabki ajdod turlar Markaziy Osiyo–Eron–Kavkaz mintaqasida shakllanganini, keyinchalik esa *Allium* turlarining Shimoliy Osiyo orqali “Eski dunyo” turlarining “Yangi dunyo” hududiga Bering bo‘g‘ozi orqali tarqalganligi ochib berilgan;

xloroplast genomlariga asoslangan tahlillar natijasida *Cepa* seksiyasi turlari uchun filogenetik daraxt rekonstruksiya qilinib, unda Markaziy Osiyoga xos *A. oschaninii, A. praemixtum* va *A. pskemense* turlarining Shimoliy va Sharqiy Osiyo guruhlari o‘rtasida o‘zaro gibridizatsiya natijasida yuz bergan xloroplast o‘zlashtirilishi jarayonlari orqali shakllangani isbotlangan;

molekulyar tadqiqotlar natijasida *Allium* turlari filogenetik daraxtlarini qurishda qo‘llash uchun *rpoC2, ycf1, ndhF, matK, ndhD* kabi yuqori o‘zgaruvchan genlar DNK-barkod markerlar sifatida aniqlangan;

turkumning dastlabki ajdod turlarida diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy sinapomorfik belgilar sifatida piyoz qobig‘ining qog‘ozsimon tuzilishi, kichik o‘lchamli haqiqiy piyozlarning mavjudligi, chang iplarida tishchalarning yo‘qligi, shuningdek pushti va oq rangli gul shakllarining ustunligi aniqlandi;

Allium turkumining dastlabki evolyutsion liniyasi (EL1) Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda (Kavkaz, Eron va Markaziy Osiyo oralig‘i) shakllangan hamda keyinchalik diversifikatsiyaga uchragani aniqlangan;

Allium turkumi ichidagi asosiy evolyutsion yo‘nalishlarning ajralib chiqishi taxminan 30,9 mln yil avval, ya’ni Oligotsen–Miotsen davrlariga to‘g‘ri kelishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Allium turkumiga mansub 95 ta tur uchun urug‘ epidermis hujayralarining turlarni ajratishda muhim bo‘lgan diagnostik belgilariga asoslangan mukammal taksonomik kalit ishlab chiqilgan;

Markaziy Osiyoda tarqalgan *Allium* turkumosti turlarining 59 turi uchun gul ichki tuzilishi (chang iplarining turlari va shakllari) bo‘yicha to‘liq morfologik tahlil, shuningdek *Allium* turkumining 80 ta turi uchun piyoz shakllari va gul ichki tuzilishiga oid illustratsiyalar amalga oshirilgan;

Markaziy Osiyoga xos *Allium* turkumining 77 ta turi uchun to‘liq xloroplast genomlari hamda 110 ga yaqin yadroviy DNK (ITS geni) ketma-ketliklari aniqlangan va xalqaro GenBank (NCBI) ma’lumotlar bazasiga joylashtirilgan;

yangi filogeografik va taksonomik tadqiqotlar uchun muhim bo‘lgan molekulyar markerlar (*ycf1, ndhF, rpoC2, matK* va *ndhD* genlari) aniqlangan hamda ular noyob va muhofaza qilinadigan *Allium* turlarini ishonchli identifikatsiya qilish uchun universal DNK-barkod markerlari sifatida qo‘llanilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy va ilmiy jihatdan tan olingan usullarni qo‘llash orqali ta’minlandi. Urug‘ morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida, xloroplast genomlari esa kompleks molekulyar-filogenetik tahlillar asosida o‘rganildi. Olingan filogenetik natijalar kladistik tahlil qilinib, jamoatchilikka ochiq bo‘lgan ITS va to’liq chloroplast geomlari ketma-ketliklari bilan taqqoslandi, bu esa xulosalarning mustahkamligini ta’minladi. Tadqiqotning asosiy natijalari milliy va xalqaro ilmiy konferensiyalarda taqdim

etilib, soha mutaxassislari tomonidan ijobiy baholandi. Molekulyar filogenetik tahlil natijalari nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan bo‘lib, DNK ketma-ketliklari xalqaro GenBank ma’lumotlar bazasiga joylangan (https://www.ncbi.nlm.nih.gov/), bu esa olingan natijalarning ochiqligi, tekshiriluvchanligi va qayta foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati *Allium* turkumining evolyutsion liniyalari Oligotsen va Miotsen davrlarida shakllanganini biogeografik yondashuv asosida ilmiy jihatdan asoslab berilishi, urug‘ epidermisi hujayralarining mikromorfologik belgilariga tayangan holda turlarni diagnostika qilishning yangi yondashuvi ishlab chiqilishi, 110 ta *Allium* turiga oid plastid genomlari asosida morfologik ma’lumotlar bilan integratsiyalangan molekulyar filogenetik daraxtlar qurilishi hamda turkumning ostturkumlari va seksiyalarini tasniflash, xususan *Cepa* seksiyasi turlari doirasida gibridizatsiya va xloroplast genomlarining o‘zlashtirilishi jarayonlari ochib berilganligi bilan izohlanadi..

Tadqiqot natijalari yovvoyi *Allium* turlarini genetik resurs va seleksiya obyekti sifatida baholash, gibridlanish va xloroplast o‘zlashtirilishi jarayonlarini hisobga olgan holda ulardan amaliy foydalanish imkonini berdi. Shuningdek, turlarni tezkor va ishonchli identifikatsiya qilish uchun DNK-barkod markerlari hamda urug‘ mikromorfologiyasiga asoslangan diagnostik kalitlarni ishlab chiqish *Allium* turlarini muhofaza qilish, genofondni saqlash va biologik xilma-xillikni baholashda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Allium (Amaryllidaceae) turkumining filogeniyasi, biogeografiyasi va evolyutsiyasi (Markaziy Osiyo misolida) ni o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Allium turkumining 77 dan ortiq turlarining to‘liq xloroplast genomlari va nrDNK(ITS geni) to‘liq tahlili, o‘simlik turlarini laboratoriya sharoitida tur identifikatsiyasi va hududiy kelib chiqishini ekspress aniqlash usullari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti, Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasida 2021-2024 yillarda bajarilgan “Hayot daraxti: O‘zbekiston bir urug‘pallalilari” fundamental loyiha dasturiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 20-iyundagi №4/1255-1522-son ma’lumotnomasi). Natijada, turkumning eng qadimgi vakillarini kelib chiqish va O‘rta Osiyodagi vakillari ichidan “qadimiy gibridlangan” turlarni aniqlash, madaniylashtirish jarayonlarida qo‘llash imkonini bergan;

molekulyar — filogenetik tahlillar asosida 77 ta tur 105 namuna uchun olingan DNK ketma-ketliklari (xloroplast genomlari, ITS) xalqaro NCBI GenBank (https://www.ncbi.nlm.nih.gov/)da NC_044411, NC_044412, NC_068792, NC_068793, NC_068794, NC_068796, OP642457, OP643522, PQ308296, PQ308298 raqamlari ostida saqlangan. Integratsiyalashgan ushbu ma’lumotlar *Allium* turkumining molekulyar taksonomiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni olish imkonini bergan, bu nafaqat mahalliy turlar xilma-xilligini sezilarli darajada boyitdi, balki Markaziy Osiyo florasiga oid filogenetik va biogeografik qarashlarni kengaytirdi hamda fan uchun noma’lum bo‘lgan yangi turlarni aniqlash imkonini

bergan;

O‘zbekiston va Sharqiy Osiyo florasiga mansub *Allium* turlari o‘rtasidagi molekulyar-filogenetik va biogeografik munosabatlarni aniqlash, SEM usuli asosida urug‘ning makro va mikromorfologik xususiyatlari hamda morfologiyasini tahlil qilish orqali labaratoriya sharoitida tur aniqlash usuli Xitoy Fanlar Akademiyasi Kunming Botanika institutida amalga oshirilgan “Global *Allium* Garden” (U1802232, 2018–2022 yy) xalqaro loyiha faoliyatiga joriy qilingan (Xitoy Fanlar akademiyasining 2025-yil 5-fevraldagi ma’lumotnomasi). Natijada, *Allium* turlari o‘rtasidagi evoluytsion munosabatlarni aniqlash, taksonomiyasiga oid yangi ilmiy qarashlarni shakllantirish, turlarni aniqlashning zamonaviy taksonomik kalitini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik disertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dessertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dessertatsiya hajmi 182 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va uning zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga uyg‘unligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublikadagi va xorijdagi ilmiy-tadqiqot ishlariga oid sharhlar, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning asosiy maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilganligi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi ham bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “***Allium* L. taksonomiyasining tarixi va hozirgi qabul qilingan tasnifi”** nomli birinchi bobi *Allium* turkumining taksonomik tarixi va hozirgi davrda qabul qilingan taksonomik tahlil qilingan. *Allium* turkumi 1000 dan ortiq turga ega bo‘lib, bir urug‘pallalilar orasida eng yirik taksonlardan biri sanaladi. Turkum turlari morfologik tuzilishining xilma-xilligi, turli ekologik sharoitlarga yuqori darajada moslashuvchanligi va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyati tufayli uzoq vaqt davomida botaniklarning qiziqishini uyg‘otgan. Bosh piyoz (*A. cepa)*, sarimsoq (*A. sativum*) kabi muhim o‘simliklar, bu turkumning qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sohalaridagi global ta’sirini ko‘rsatadi (Burba va Galmarini, 1994; Wheeler et al., 2013). Ularda achchiq hidi va ta’mini beruvchi sulfid birikmalari borligi *Allium* turlarini boshqa turlardan yanada ajratib turadi (Fritsch va Friesen, 2002). Xalqaro ekologik taqsimoti nuqtai nazardan Markaziy va Sharqiy Osiyo, O‘rta Yer Dengizi havzasi va Shimoliy Amerika kabi *Allium* ning xilma-xillik markazlari mavjud (Khassanov, 2018).

Allium ning taksonomik o‘rganilishi, XVIII-asrda Linney (1763) tomonidan changchilar soni va tuzilishi asosida olib borilgan dastlabki morfologik tasniflashlar bilan boshlandi. 1745-yilda Halleir, 1832-yilda Don va 1837-yilda Koch kabi olimlar tasniflash tizimlarini takomillashtirishgan, so‘ngra 1875 va 1887-yillarda Regel, 1935-yilda Vvedensky va 1968-yilda Traub tomonidan yirik tahrirlar amalga oshirilgan. Ikki asrdan ortiq muddat davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida shakllangan bilimlar asosida turkumning tasnifi yanada takomillashtirilib, turkum turlari yuzlab taksonomik birliklarga bo‘lingan, osttukum va seksiyalarga ajratilgan (Kamelin, 1973; Hanelt, 1990). 20-asrning oxirlarida molekulyar ma'lumotlarning integratsiyasi taksonomiyani inqilobiy ravishda o‘zgartirdi: Hanelt va boshqalar (1992) hamda Gregory va boshqalar (1998) ostturkumlar va sektsiyalar doirasini rivojlantirdilar, natijada Friesen va boshqalar (2006) tomonidan 15 ta ostturkum va 72 ta seksiyalar taklif qilindi. Ular shuningdek molekulyar dalillar asosida uchta yirik evolyutsion liniyalarni aniqladilar (Friesen va boshqalar, 2006; Fritsch va Friesen, 2002).

Morfologik murakkablik hali ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki urug‘ning epidermis hujayralari tuzilishi yoki piyozning qobig‘i shakli kabi muhim xususiyatlar gerbariy namunalarida ko‘pincha mavjud bo’lmay, bu tez-tez noto‘g‘ri identifikatsiyalarga olib keladi (Hanelt va boshqalar, 1992; Khassanov va Fritsch, 1994). Sitologik tadqiqotlar, *Allium* larda x=8 asosiy xromosoma sonining ustunligini ko‘rsatdi, ammo sezilarli o‘zgarishlar va keng miqyosdagi poliploidiya, turkumning ichida moslashish va turlanishning asosiy omili bo‘lib qolmoqda (Traub va Traub, 1968; Ohri va boshqalar, 1998; Wu va boshqalar, 2010). Poliploidiya, ko‘pincha atrof-muhitning stressiga moslashish bilan bog‘liq bo‘lib, *Allium* turlarining Miotsen va Pliotsen davrlarida iqlim o‘zgarishlari ostida diversifikatsiyalanishiga olib kelgan (Han va boshqalar, 2020; Mayrose va boshqalar, 2010).





So‘nggi filogenetik tadqiqotlar, yadro (ITS) va plastid ma'lumotlari asosidagi filogeniya cheklangan yechimlar ko‘rsatgan (Xie va boshqalar, 2020). Ushbu yondashuvlar, evolyutsion aloqalar, ajralish vaqtlarini va morfologik innovatsiya bilan atrof-muhitga moslashuv o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aniqlashda yanada aniqroq bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, *Allium* taksonomiyasining tarixi nafaqat botanika fanining rivojlanishini — morfologiyadan molekulyar filogenetikaga — balki tukumning poliploidiya, moslashish va diversifikatsiya jarayonlarini o‘rganishdagi rolini ham aks ettiradi.

Dissertatsiyaning “***Allium*** **turkumining makro-morfologik va mikro-morfologik urug‘ xususiyatlari**” nomli ikkinchi bobda *Allium* urug‘larining makro- va mikromorfologiyasini hozirgi kungacha eng keng qamrovli o‘rganilishi ko’rsatilgan. Tadqiqotda 14 ta ostturkum va 58 ta seksiyaga mansub 95 ta tur (98 ta namunaning) o‘rganilib, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida 10 ta epidermis hujayrasining periklinal devor yuzasi maydoni, hujayralar orasidagi masofa, hujayra shakllari, antiklinal va periklinalal devorlarning tuzilishi kabi xususiyatlar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu tadqiqotda birinchi

marta o‘rganilgan 10 ta epidermis hujayrasining periklinal devor yuzasi maydoni va ular orasidagi masofa *Allium* turkumida turlarni ajratishda foydali ekanligi aniqlandi. Urug‘ xususiyatlariga asoslanib, taksonomik kalitlar va *Allium* evolyutsiyasining ilk bosqichlaridagi migratsiya yo‘nalishlarining taxminiy rekonstruktsiyalari taqdim etdildi. Tadqiqotda, epidermis hujayralari shakllari turli *Allium* turlaridagi evolyutsiya jarayonining bosqichlarini ko‘rsatadi. Hujayralar joylashuvining bo‘shlig’i, kichik yoki mavjud bo‘lmagan verrukalar (tugunlarga o‘xshash), botiq periklinal devorlar, to‘g‘ri yoki yoy shaklidagi antiklinal devorlar va keng tuxumsimon urug‘lar qadimiy, primitiv xususiyatlar sifatida qaraldi. O‘rtacha rivojlanish bosqichi xususiyatlariga retikulyar, to‘rga o‘xshash hujayralar joylashuvi, o‘rtacha kattalikdagi verrukalar, tekis periklinal devorlar, yoy yoki S-tipidagi antiklinal devorlar va tor tuxumsimon urug‘lar kiritildi. Eng rivojlangan xususiyatlar esa zichroq joylashgan hujayralar, yirik verrukalar, gumbazsimon periklinal devorlar, U va Ω-tiplaridagi, shuningdek tuxumsimon yoki yassi tuxumsimon shakldagi urug‘lar bilan ajralib turdi.

1-jadval


Allium turlarida urug‘epidermis hujayrasi antiklinal devori va hujayra shaklining dominant egrilik turlari

A. Antklinal devor: dominant egrilik turlari:			B. Hujayra shakllari:		
	To‘g‘ri–Egri	7		Dumaloq	1
	S-tip	6		Elliptik	2
	Egri-S-tip	5		Cho‘zinchoq	3
	U-tip	4		To‘rtburchak	4
	S-U-tip	3		5 qirrali	5
	Ω-tip	2		6 qirrali	6
	U - Ω-tip	1			

Morfologik belgilar ITS ketma-ketliklariga asoslangan filogenetik daraxtga joylashtirilganda (1-rasm), bu hujayra xususiyatlari *Allium* ichidagi uchta asosiy

evolyutsion yo‘nalishlarni (EL1, EL2, EL3) qo‘llab-quvvatladi (2-rasm).


Birinchi evolyutsion yo‘nalish (EL1) turlari va tashqi guruh turlari eng primitiv urug‘ epidermis xususiyatlarini ko‘rsatdi. Ikkinchi evolyutsion yo‘nalishdagi taksonlar asosan o‘rtacha xususiyatlarga ega bo’lib, bundan *Melanocrommyum* ostturkumi a’zolari mustasno bo‘lib, ular rivojlangan xususiyatlarni namoyish etdi. Uchinchi evolyutsion yo‘nalishda ko‘pchilik turlar primitiv hujayra xususiyatlarini saqlab qolgan, bundan *Allium* ostturkumi vakillari istisno qilib, ular asosan rivojlangan xususiyatlarga ega edi. *Allium* ajdodlari Kavkaz, Markaziy Osiyo va Eron bilan chegaralangan hududda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilindi. Ushbu hududdan birinchi evolyutsion yo‘nalishdagi taksonlar janubiy Yevropa va Sharqiy O‘rta Yer Dengizi tomon yoki Sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqqa qarab harakat qilgan.



1-rasm. ITS ketma-ketliklargiga asoslangan filogenetik daraxtning urug‘ epidermis xususiyatlari bilan bog‘liqligi.

Misol uchun, eng primitiv epidermis hujayralari xususiyatlarini ko‘rsatgan *Nectaroscordum* ostturkumi a’zolari g‘arbiy yo‘nalish bo‘ylab harakat qilgan deb taxmin qilinadi. Periklinal devorlarining shakli va antiklinal devorlarining burmalanishi - *Allium* turkumi urug‘ epidermis xususiyatlarining evolyutsiyasini belgilovchi ikki asosiy omillari deb qaraladi. Primitiv turlar botiqsimon periklinal

devorlari va to‘g‘ri yoki yoy shaklidagi antiklinal devorlarga ega bo‘lsa, rivojlangan taksonlar bo’rtiq periklinal devorlar va to‘lqinli (S-tip, U-tip, U-Ω-tip, Ω-tip) antiklinal devorlarga ega. Xulosa qilib aytganda, *Allium* urug‘larining makro- va mikromorfologiyasini keng qamrovli o‘rganish ushbu yirik va iqtisodiy ahamiyatli turkumdagi taksonomik, evolyutsion va biogeografik aloqalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Urug‘ epidermis xususiyatlari nafaqat turlarni ajratish uchun foydali ekanligini, balki *Allium* da tan olingan turli evolyutsion bosqichlarni ham aks ettirishi mumkinligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan migratsiya yo‘nalishlari va urug‘ epidermisi xususiyatlarining evolyutsiyasi ushbu turkumning Kavkaz, Markaziy Osiyo va Eron hududlariga asoslangan biogeografik tarixini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.




2-rasm. Dunyo miqyosida *Allium* turkumining urug’ epidermis xususiyatlariga asoslangan holda tarqalish migratsiyasi. Turlarni xaritada joylashishi va tarmoqlanishi gerbariy ma'lumotlariga va ITS ketma-ketliklariga asoslangan filogenetik daraxtdagi o‘rniga mos ravishda joylashtirilgan..

Dissertatsiyaning **“Markaziy Osiyoda *Allium* turkumi *Allium* turkumostisining (Amaryllidaceae) filogenomikasi va morfologik evolyutsiyasi”** nomli uchinchi bobida ostturkumga tegishli o’simliklarningning xloroplast genomi tuzilishi, genetik xilma-xillik va filogenetik munosabatlarni keng qamrovli tahlili amalga oshirilgan. Natijalar xloroplast genomi umumiy o‘lchami 151,465 juftlikdan 153,406 juftlikgacha o‘zgarib turishini ko’rsatdi (3-rasm). SSR lar tahlili ichki transkripsiya hududlarida muhim polimorfizmni ochib berdi, bu hududlar oqsil kodlovchi ketma-ketliklarga nisbatan yuqori nukleotid xilma-xilligini ko‘rsatdi.

Yangi sekvenslangan o‘nta *Allium* turi, *Allium* ostturkumining olti sektsiyasi


vakillari bo‘lib, turkumning filogeniya va xloroplast genom strukturasiga yangi o’zgarishlarni kiritdi. Ushbu turlar quyidagi bo‘limlarga mansub: *Allium* seksiya (*A. filidens*), *Brivedentia* seksiya (*A. michaelis* va *A. nikolai*), *Coerulea* seksiya (*A. caesium* va *A. glomeratum*), *Eremoprasum* seksiya (*A. confragosum* va *A. sabulosum*), *Haneltia* seksiya (*A. haneltii*) va *Pallasia* seksiya (*A. pallasii* va *A. tanguticum*). Qiziqarli tomoni, *Pallasia* seksiyasining oxirgi ikki turi (*A. pallasii* va *A. tanguticum*) Xie va boshqalar (2020b) tomonidan ham xloroplast genomining to‘liq sekanslanishi orqali tahlil qilingan bo‘lib, ular har ikki tadqiqotda (bizning tadqiqotimizda ham) filogenetik daraxtda bir xil o‘rinda emas, balki boshqa molekulyar kladda o’rin olgan. Shunga o‘xshash tarqalish *Coerulea* seksiyasidan *A. caesium* va *A. glomeratum* turlarida, *Eremoprasum* seksiyasidan *A. confragosum* va *A. sabulosum* turlarida ham kuzatildi.



3-rasm. *Allium* ostturkumi turlarining xloroplast genom tuzilishi.

O’tkazilgan filogenetik tahlillar, turlar filogenetik daraxtdagi joyi va ularning taksonomik joylashuvi o‘rtasida sezilarli nomuvofiqliklarni ochib berdi. Masalan, *A. confragosum* morfologik xususiyatlarga asoslanib *Eremoprasum* seksiyasiga kiritilgan bo‘lsa-da, filogenetik daraxtda *A. confragosum Eremoprasum* ning tipik turi bo‘lgan *A. sabulosum* bilan bir xil kladada joylashmagan. Aksincha, u *A. caesium*, *A. haneltii* va *A. caeruleum* kabi turlar bilan birga klasterlashgan. Khassanov (2018) *A. confragosum* va *A. sabulosum* ni bir xil seksiyaga joylashtirgan edi, chunki ular ichki changchilarning uch qismga bo‘linishi va ostki qismidagi qobig’i tishli bo‘lishi kabi o‘xshash xususiyatlarga ega. Biroq, *A. confragosum A. sabulosum* dan farq qiladi, chunki uning to‘pgul o‘rovchi qoplamasi doimiy saqlanib qoladi. *A. confragosum* gul ochilishidagi to’pgul o’rovchi qoplamaning doimiy

saqlanishi bilan *A. haneltii*, *A. caeruleum* va *A. caesium* ga o‘xshashdir. Ushbu dalil, ilgari *Allium* ostturkumdagi seksiyalarni belgilashda ishlatilgan morfologik xususiyatlarning ahamiyatini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi (4-rasm). Bizning tadqiqotimiz, *Allium* ostturkumining to’liq xloroplast genomi asosidagi filogeniyasiga oid 18 turdan foydalanilgan birinchi keng qamrovli tahlil bo‘lib, bu *Allium* turkumining mavjud seksiyalar klassifikatsiyasi bilan mos kelmasligini ko‘rsatdi.



4-rasm. *Allium* ostturkumiga mansub turlarning gullarining morfologik belgilari, changchi ipchalari va piyozlari. (A) *A. sabulosum* (*Eremoprasum* seksiyasi, V. Epiktetov rasmi); (B) *A. pallasii* (*Pallasia* seksiyasi, V. Epiktetov rasmi); (C) *A. michaelis* (*Brivedentia* seksiyasi, G. Lazkov rasmi); (D) *A. haneltii* (*Haneltia* seksiyasi, F. Khassanov rasmi); (E) *A. filidens* (*Allium* seksiyasi, G. Lazkov rasmi); (F) *A. caesium* (*Coerulea* seksiyasi, L. Valdshmit rasmi).

To’liq xloroplast genomi ma'lumotlari asosida qurilgan filogenetik daraxtda ko‘pchilik kladlarda boshqa ostturkumlar vakillari, masalan, *Polyprason*, *Reticulatobulbosa* va *Cepa* ostturkumlaridan ma’lum turlar mavjud bo‘lib, faqat bir kladda barcha vakillar *Allium* ostturkumiga tegishli bo‘lgan. Bu, Friesen va boshqalar (2006) tomonidan tuzilgan ITS asosidagi filogenetik daraxtga qarama-qarshi, unda *Allium* ostturkumi alohida klad hosil qilgan edi.

Shuningdek, tadqiqotda *Allium* turlarining xloroplast genom strukturasidagi farqlar tahlil qilingan. To’liq xloroplast genomlarda ko‘pincha psevdogen (genlarning funksional vazifasini yo’qotishi) yoki genlarning to‘liq yo‘qolishi kuzatildi (Haberle et al., 2008; Guisinger et al., 2011; Schwarz et al., 2015). Biz *rpl22* genining yo‘qolishi, *rps2*, *accD*, *psaI*, *rpl20*, *rpl23*, *rpl32* va ndh guruhidagi genlarning psevdogen holatiga o’tishi, shuningdek *rps16* va *infA* genlarining yo‘qolishi yoki psevdogen holatiga o’tishini aniqladik. Avvalgi tadqiqotlarda (Xie va boshqalar, 2019; Scobeyeva va boshqalar, 2021) *Allium* da *rps16*, *rps2*, *infA* va *rpl32* genlari yo‘qolishi yoki psevdogen holatiga o’tishini ko‘rsatilgan edi. Shuningdek, biz *A. ovalifolium*, *A. ochotense* va *A. paradoxum* turlarida *psaI*, *rpl20* va *rpl22* genlaridagi yangi psevdogen holatiga o’tishi yoki yo‘qolishini aniqladik. *Allium* dagi avvalgi tadqiqotlar (Huo et al., 2019; Xie et al., 2020b) bilan taqqoslaganda, IR/SSC va IR/LSC chegaralarining taqqoslanishi o‘xshash

xususiyatlarga ega bo‘lib, faqat *rpl22*, *rps19*, *ycf1* va *ndhK* genlarining joylashuvi bo‘yicha kichik farqlar mavjud. Shuningdek, barcha o‘rganilgan turlarda *trnH-rps19* klasteri *Allium* ostturkumi turlarining IR hududlarida joylashganligini aniqladik, bu esa Wang va boshqalar (2008) tomonidan tavsiflangan IR/LSC juftliklarining kengayishi va qisqarishlariga mos keladi. Bu natijalar, *Allium* ostturkum turlarining genom tuzilishini tushunishda katta yordam beradi.

Filogenetik tahlillar ushbu turlar joylashuvi ko‘pincha ularning hozirgi taksonomik tasniflariga zid kelishini ko‘rsatdi, bu esa avvalgi seksiyalarni belgilashda ishlatilgan morfologik xususiyatlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini taklif qiladi. Tadqiqot shuningdek, to’liq xloroplast genomi asosida qurilgan filogenetik daraxt morfologiyaga asoslangan tasniflar va avvalgi molekulyar tadqiqotlar, masalan, ITS ketma-ketliklarini ishlatganlar bilan muhim farqlarni ko‘rsatdi. Masalan, morfologiyaga asoslangan holda *Eremoprasum* seksiyasiga kiritilgan *A. confragosum* filogenetik daraxtda boshqa seksiyadagi turlar bilan bir klasterda joylashganligi aniqlangan, bu esa hozirgi tasnif tizimida muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, natijalar *Allium* ostturkumining filogeniyasi avvalgi tushunchalardan ko‘ra murakkabroq ekanligi ko’rsatadi.

Dissertatsiyaning **“*Allium* turkumi *Cepa* seksiyasi filogenomikasi: Markaziy Osiyoda bosh piyozning madaniylashtirilishi bo‘yicha yangi ilmiy qarashlar.”** nomli to‘rtinchi bobida *Cepa* seksiyasi iqtisodiy jihatdan muhim o‘simliklarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning filogenetik munosabatlarini tushunish har doim qiyin bo‘lganligi, ushbu tadqiqotda, to‘rt (*Allium oschaninii, A. praemixtum, A. pskemense* va *A. galanthum*) *M*arkaziy Osiyo turining to‘liq xloroplast genomlarini sekvens qilish orqali bu munosabatlarni aniqlash maqsadi qo’yilgan.


Tahlil natijalari seksiya ichida ikkita alohida kladni ko‘rsatdi (5-rasm). Birinchi klad *A. oschaninii, A. praemixtum* va *A. pskemense* ni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ikkinchi klad *A. galanthum, A. altaicum* va ikki madaniy tur, ya'ni *Allium cepa* va *Allium fistulosum* larni o‘z ichiga oldi. Ushbu natijalar, avvalgi yadro DNK va morfologik ma'lumotlarga asoslangan filogenetik tadqiqotlar bilan ziddiyatda bo‘lib, turlararo gibridizatsiya va xloroplast o’zlashtirish (chloroplast capture) jarayonlari bu munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, *A. galanthum, A. cepa* bilan yaqinroq genetik o’xshashlikda bo‘lishiga qaramay, piyozning madaniy navlarini hosil bo’lishida rol o‘ynamagan bo’lishi mumkin. Ushbu xulosa, bu turlar o‘rtasida sezilarli morfologik va yadro DNK farqlari mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Ushbu natijalar, Markaziy Osiyo turlarining madaniy piyozning eng yaqin yovvoyi qarindoshlari ekanligi haqidagi keng tarqalgan fikrni qarshi chiqadi. Buning o‘rniga, *A. cepa* ning madaniy sharoitida yetishtirilishi boshqa joylarda sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin va bu muhim o‘simlikning haqiqiy yovvoyi ajdodlarini aniqlash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o’tkazish zarurligi ta’kidlaydi.

Shuningdek, tahlil *rpoC2* xloroplast genining *filogeniyada* ahamiyatliligini ta'kidlaydi, bu gen 80 ta oqsil kodlovchi genlar, to‘liq xloroplast genomlar, xloroplastning SSC va LSC qismlari asosida qurilgan filogenetik daraxt bilan bir xil tuzilishdagi filogenetik daraxtlarni ishlab chiqardi. Ushbu filogenetik moslik, *rpoC2*

genini *Allium* turlaridagi kelajakdagi filogeografik va filogenetik tadqiqotlar uchun qimmatli gen sifatida belgilaydi.

Birgina genning kengroq genetik ma'lumotlar bilan mos kelishi, filogenetik tahlillarni kuchaytiradi va bu o‘simliklarning evolyutsion tarixini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.



5-rasm. *Cepa* seksiyasining 16 ta to’liq xloroplast genomining 80 ta oqsil kodlovchi genlariga asoslangan filogenetik daraxti.

Biroq, tadqiqotda shuningdek, bir qator turlar, jumladan *A. rhabdotum, A. roylei, A. farctum, A. asarense* turlari uchun xloroplast genomlarining mavjud emasligi *Cepa* seksiyasi ichidagi filogenetik munosabatlarni to‘liq tushunishni qiyinlashtiradi. Ushbu bo‘shliqlar, seksiya ichidagi evolyutsion dinamikani to‘liq tushunishni qiyinlashtiradi va kelajakdagi tadqiqotlar ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish zarurligini anglatadi. Ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etish orqali *Allium* turlarining evolyutsiyasi va madaniy sharoitida yetishtirilishi haqida yanada to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari mumkin bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot *Cepa* seksiyasi ichidagi filogenetik munosabatlar haqida yangi tushunchalar beradi, avvalgi taxminlarni inkor etadi va uning evolyutsion tarixining murakkabligini ta'kidlaydi. Olingan natijalar, o‘simliklar evolyutsiyasi va madaniy sharoitida yetishtiriladigan *A. cepa* turini yanada chuqurroq tushunish uchun bir nechta genetik ma'lumot manbalarini birlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi


Dissertatsiyaning **“*Allium* L. (Amaryllidaceae) turkumining murakkab evolyutsiyasining qiyosiy filogenomikasi”** nomli beshinchi bobida *Allium* ning murakkab evolyutsion tarixini keng qamrovli filogenomik tahlil orqali aniqlash maqsad qilgan. Tadqiqotda, *Allium* turlari o‘rtasidagi filogenetik munosabatlarni xloroplast genomi ma'lumotlari va ribosomal DNK (ITS) ketma-ketliklari yordamida tiklashga qaratilgan. Tadqiqot molekulyar ma'lumotlarni morfologik xususiyatlar bilan birlashtirib, ushbu turkumining xilma-xilligini shakllantirgan

